

ROMAN TO'QIMASIDA "QUR'ON" SURA VA OYATLARINING QO'LLANILISHI

Fayziyeva Hidoyat Sohibboy qizi

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat
universiteti magistranti*

Annotatsiya: *Qur'oni Karim islom dinining muqaddas kitobidir. "Islom ensiklopediyasida" Qur'onga shunday ta'rif berilgan. Qur'on arabcha-o'qimoq, qiroat qilmoq jamlash ma'nolarini o'zida mujassamlashtirgan musulmonlarning asosiy muqaddas kitobidir. Ushbu maqolada Sa'dulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy" romanida Qur'on oyatlari va suralarining qo'llanishi va undan ko'zlangan maqsad xususida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Qur'on, Jabroil alayhissalom, Makka, Muhammad sallalohu alayhi vassallam, sura, oyat, hadis.*

Unda o'zidan oldin nozil bo'lgan barcha ilohiy kitoblarning ma'no, hikmat va ahkomlari jamlanganiga ishora bordir. Qur'on Jabroil alayhissalom orqali Muhammad sallalohu alayhi vassallamga 40 yoshga yetganlarida, milodiy 610-632 yillarda vahiy orqali nozil qilingan. Bu jarayon Makkada o'n uch yil, Madinada o'n yil, hammasi bo'lib yigirma uch yil davom etgan Qur'on suralardan iborat, sura Qur'onning bir bo'laki bo'lib, uch yoki undan ko'p oyatni o'z ichiga oladi. Qur'onda 114 ta sura bo'lib, har birining o'z nomi bor. Ba'zi suralarning nomi sura boshidagi so'zdan olingan. Ba'zilariniki esa, o'sha surada zikri ko'proq kelgan narsalarning nomiga qo'yilgan. "Sura" so'zi lug'atda, qo'rg'on, manzil va sharaf ma'nolarini anglatadi. Qur'on suralari ikki qismga bo'linadi: 1. Hijratdan avval tushgan suralar - "Makka suralari" (Makkada tushgan) deyiladi. 2. Hijratdan keyin tushgan suralar - "Madinada suralari" (Madinada tushgan) deyiladi. Muhammad (s.a.v) hayotligida Qur'on jamlab kitob holiga keltirilmagan. Payg'ambar sahobalari Qur'on oyatlarini uning tilidan katta ehtirom ila yozib, yodlab borganlar. Xalifa Abu Bakr (ra) davrida dindan qaytganlar bilan musulmonlar orasida qattiq janglar bo'ldi. Janglarda Qur'onni to'liq yod olgan ko'plab qorilar shahid bo'ladi. Bu esa Qur'onni kitob holiga keltirish zaruratini tug'dirgan. Xalifa Abu Bakr Zayd ibn Sobit ismli sahobani chaqirib, bu ishni unga topshirdi. Zayd ibn Sobit Payg'ambar (s.a.v) bilan juda ko'p birga bo'lgan, Qur'onni eng yaxshi yod olgan va uni payg'ambar huzurida yozgan, Payg'ambar vafot etadigan yillari Jabroil farishtaga Qur'onni avvalidan oxirigacha o'qib o'tkazganida birga bo'lgan edi.

Payg'ambar huzurlarida yozilganiga ikkita guvohi bo'lsa, bizga olib kelsin, Qur'onni jam qilishga xalifaning buyrug'i bo'ldi", deb e'lon qildilar. Ular masjidida o'tirib, guvochlarni tekshirib, nihoyatda aniqlik bilan bir yildan ortiq vaqtda Qur'onni jamladilar. Zayd va Umar Qur'onni kiyik terisidan ishlangan sahifalarga yozdilar.

Vaqt o'tishi bilan Islom davlatining chegarasi kengayib, ko'plab xalqlar musulmonlikni qabul qilib, musulmonlarning soni ko'paygandan so'ng Qur'onni o'qishda turlicha kelishmovchiliklar chiqa boshladi. Bu holatni ko'rgan xalifa Usmon ibn Affon, Qur'onning asl nusxasini saqlangan Hafsadan Abu Bakr davrida sahifalarni so'rab olib, undan olti nusxa ko'chirishga buyruq berdi. Nusxalar tayyor bo'lgandan so'ng musulmonlar yashaydigan o'lkalarning markaziy shaharlariga bittadan nusxaga bittadan qori qo'shib jo'natadi va hammaga faqat shu nusxadan Qur'onni ko'chirish va shu qoridan qiroat o'rganishga buyruq beradi. Keyinchalik, nusxa ko'chirish yo'lga qo'yilishi jarayonida faqatgina Usmon davrida yozilgan nusxalarga suyanish joriy etildi. Har bir nusxaning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida, bu nusxa Mushafi Usmonga muvofiqdir, deb yozib qo'yiladigan bo'ldi. Qur'onning asosiy g'oyasi-yagona Allohga imon keltirish va unga e'tiqod qilish. Mohiyatida esa insonlar ongida ko'p xudolikka barham berish, yakkaxudolikni targ'ib qilish orqali islom dinini qaror toptirish turadi. Yaxshilik, ezgulik, savob ishlar, mehr-shavqat, miskin va muhtojlarga yordam berish, insonparvarlikni ulug'lash-Qur'onning mazmunini belgilaydi. Unda tekinxo'rlik, birovlarning haqqini yeyish, boshqalar hisobiga yashash, poraxo'rlik, tamagirlik, dangasalik, o'g'rilik, qotillik, dilozorlik, fitna, kibru havo va boshqa salbiy illatlar qoralanadi. Qur'onda Olamdagi barcha mavjudotlar haqida va jami mavzular xususida ma'lumotlar qamrab olingan. Qur'on o'ziga e'tiqod qiluvchi xalqlar hayotida va tarixida asosiy o'rin tutgan kitobdir. Islomni qabul qilgan xalqlarning ilmu-ma'rifati, adabiyoti, turmush tarzi, qonun-qoidalari, urf-odatlar va dunyoqarashlarida Qur'onning o'rni beqiyosdir. Undan ilhomlanib turli janrlar, turli mavzular dunyoga keldi. Hamd, na't, salovat, tazkira, yilnoma, manoqib, holot, siyra, maqomot, arba'in, g'azal, qit'a, to'rtlik, rivoyat, hikoyat, matal, og'zaki ijodi namunlari, diniy marosim qo'shiqlari, ashulalar, o'yinlar, so'fiy raqslari, musiqalar, munojot kabilar paydo hikmat, xalq bo'ldiki bunda Qur'ondagi yetakchi mavzular tilga olindi va qur'oniy g'oyalar ilgari surildi. Tarixiy va diniy me'moriy yodgorliklarda xususan, madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, maqbaralar, qabr toshlari kabilarda Qur'ondan sura va oyatlar bitila boshlandi. Islom adabiyoti, tarixi, manbashunosligi, matnshunoslik, naqqoshlik, miniatyura, xattotlik, amaliy san'at va hunarmandchiligi yuzaga keldi. Qur'on Islom ulamolari, xususan, muhaddislar, huquqshunoslar, faylasuflar, qomusiy olimlar, mutafakkirlar, shoirlar, so'fiy olimlarining qarashlarida va g'oyalar tizimida yetakchilik qildi. Turkiy xalqlar jumladan, o'zbek mumtoz adabiyotida qur'oniy mavzular aks etishi ajdodlarimizning bevosita e'tiqodi bilan bog'liqdir. O'n to'rt asr mobaynida yaratilgan va hozirga qadar qimmatini yo'qotmagan mumtoz adabiyotimiz durdonalari zamirida Allohga bo'lgan haqiqiy ishq ifodasi namoyon bo'lgan.

Turkiy xalqlar uchun birday sevimli bo'lgan Xoja Ahmad Yassaviy Hikmatlari Islom dinining asosi bo'lgan Qur'oni karim sura va oyatlarining ta'sirida yuzaga kelgan. Sababi tasavvufning o'zi aynan Islom dinining nufuzini yanada oshirish, uni

keng targ'ib qilishga qaratilgan. "IX asrda islom dunyosining eng buyuk muhaddisi Imom Buxoriy Movarounnahrda arab tilida ijod etgan bo'lsa, uch asr osha Xo'ja Ahmad Yassaviy islom aqidalarini turkiy tilda sharxlashga ehtiyoj sezib qudratli tariqatga asos soladi. Yassaviy Hikmatlaridan birida mazkur holatni shunday sharhlaydi:

Oyat, hadis ma'nosi turki bo'lsa muvofiq,
Ma'nisiga yetganlar yerga qo'yar bo'rkini"

Yassaviy ijodida islomning asosiy ikki manbasi Qur'on va payg'ambarimiz Hadislari alohida ahamiyat kasb etadi. Yassaviy tariqatining boshqa tariqatlardan farqli tomoni ham aynan turk tilidagi talqin va Qur'onni asosiy o'rinda qo'yib turklarga xos dunyoqarashni inobatga olib hikmatlar yarata olganligida. "Ahmad Yassaviy" romanida muallif ko'p o'rinlarda Qur'on oyatlariga murojaat qilgan. Shayx Hazratlari odatda biron mavzuda gapirsalar ularni Qur'ondagi sura va oyatlar bilan dalillab, shubha yoki boshqa bir o'rinsiz savolga joy qoldirmaganlar. Shu sababli Yassaviy haqida roman yozish va unda Qur'on oyatlaridan foydalanmaslik imkonsizdir. Quyida asarda keltirilgan ushbu o'rinlarga e'tibor qaratamiz. Asarning "Bobo Mochin bilan sir" deb nomlangan 4-faslida Shayxning asli xorazmlik bo'lgan Sulaymon ismli xalifasi haqida gap boradi. Kitobxonda Sulaymon haqida yetarlicha taassurot hosil qilish uchun avvaliga uning Pir xizmatiga qanday kelib qolganligi tarixi haqida ma'lumot berilgan. Shu o'rinda aytish kerakki Shayxning oldida o'tkir tafakkur va yuksak aql sohiblari yig'ilgan bo'lib ular Shayxga kuchli hurmat va ixlos natijasi o'laroq bog'langan. Shulardan biri Hakim Ota nomiga sazovor Sulaymon Boqirg'oniydir. Romanda Sulaymon qirq yoshni qoralasada oila qurmaganligi, biroq oila qurishga mayli borligi, Vatan sog'inchi va Shayxning ijozati bilan o'z yurtiga qaytib ketish istagi ko'nglidan bot-bot o'tib turishi ko'p o'rinlarda aytiladi. Yassaviy ustoz bo'lish bilan bir qatorda qo'l ostidagi xalifa va muridlari taqdiriga ham befarq bo'lmagan inson. Sulaymonning ko'nglida shunday istak borligini "savqi tabiiysi" ila sezib yuradi va suhbatlarning birida Sulaymonga shunday deydi:

-Biz sizni farzand deganmiz, Sulaymon. Barchamiz Allohning qulimiz, illo bir-birimizga qul emasdirmiz...-Shayx ko'm-ko'k osmonda parvoz etib yurgan bir juft qushga ishora qildi.-Qarang, ana shu qushlar ham qo'shaloq bo'lib yuribdilar. Va min kulli shay'in falaqno zavjayn. Inshoollo, yaratganning farzini ado etaylik, andin so'ng sizning mushkulingiz". Parchada keltirilgan oyat Qur'oni karimning Zoriyot surasi, 49-oyatidan olingan. Sura Makkada nozil qilingan, oltmish oyatni o'z ichiga oladi. "Zoriyot"-haydovchilar. Ya'ni bulutlarni haydab yuruvchi shamollar". Va min kulli shay'in falaqno zavjayn oyatining ma'nosi, "Sizlar eslatma olishlaringiz uchun Biz har bir narsani juft qilib yaratdik"¹². Shayx ushbu oyatni eslatish bilan Alloh har bir jonni juft qilib yaratganiga, sabr qilsa Sulaymon ham o'z juftini topishiga ishora qilmoqda. Yassaviylik tariqati o'ta tarkidunyochilikka asoslanmagan. Xususan, Shayxning ko'p o'rinlarda oila mavzusiga alohida e'tibor berganligi ayrim

tariqatlarda mavjud bo'lgan dunyodan toq o'tish sharti Yassaviylik tariqatida yoqlanmaganligining bir ifodasidir.

Romanning "Birovga aytib bo'lmaydigan dard" 5-fasli epigrafida Baqara surasining, 187-oyatidan parcha keltirilgan. Ya'ni "Eru xotin bir-birining libosi Oyatning to'lig'i quyidagicha:"Uhilla lakum laylatas-siyaamir-rofasu ilaa nisaikum Hun-:na libaasul-lakum va-an tum libaasul-lahun-na 'alima Olluhu anna-kun-tum taxtaanuvna an-fusakum fataaba 'alaykum va'afaa 'an-kum fal- aana baashiruvhun-na vab tag'uvmaa kataballoohu lakum. Vakuluv vashrobu xattaa yatabayyana lakumul xoytul ab yazu minal xoytil asvadi minal fajri sum-:ma atim-mus-siyaama ilal-layli valaa tubaashiruvhun-:na vaan-tum 'aakifuvna fil masjidil tilka xuduvdulloohi falaa taq robuvhaa kazaalika yubayyinulloohu aayaatihiy lin-naasi la'allahum yattaquvn" Romanda Abdurauf obrazi oila liniyasini ochib beradi.Abduraufning hikoyasi shunday: "Ikki yil burun tijoratga bordim. O'zim umrimda oldi-sotdi qilib ko'rmaganman.Qaynarda o'tagan boy degan savdogar bor.shu qo'ymadi.men bilan yur,bir yil Xurosonu Shomni aylanib kelsang,ahli ayolingga bir tabaq marvarid topib kelasan,dedi.Meni karvonboshi qilmoqchi bo'ldi. Yosh vaqtimdan ot-tuya ichida katta bo'lganman, jonivorlarning fe'lini yaxshi bilaman. Xudoga shukr bilagimda to'rt qaroqchiga yetgulik kuchim bor.Bir yoqdan oldimda ikki o'g'ilning sunnati turibdi. Ularning qo'lini halollab musulmon qatoriga qo'shish kerak.Bir ortiqcha dunyo bo'lsa, yirtig'imga yamoq bo'lar deb o'yladim. O'tagan boyga xo'p dedim.

Ketdik.Buxoro,Marv,Nishopur, Basra qilib Rungacha boribmiz.Xullas,bir yilu sakkiz oy deganda qaytdik.Ozib-to'zib volidai mehribon, ikki o'g'il bir qiz,alarning onasini o'ylab...sog'inchdan jigarlarim xun bo'lib,o'lib-o'lib uyga keldim. Enamiz yig'lab bo'ynimga osildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Саъдулла Сивев. Ахмад Яссавий. Тошкент-2012,44-бет Куръони каримдан машхур суралар фазилати ва сирлари. Тошкент-2021,81-бет
2. Islom ensiklopediyasi. Toshkent-2004,242-bet
3. 10 "Хамидулла Кароматов, Қуръон ва ўзбек адабиёти. Тошкент-1993,38-бет
4. Саъдулла Сиёев Аҳмад Яссавий. Тошкент-2012,42-бет
5. "Шайх Абдулазиз Мансур.Куръони карим маъноларининг таржима ва тафсири. Тошкент-2021.522-бет